

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH**

*Abdisamatova Dildora Sobirovna*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti*

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim tizimining yangi maqsadi bolalarda o'qish va uqish fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu yangi maqsadlarga erishish mактаб amaliyotiga yangi usullar (dars vositalari, dars o'tish shakllari) tatbiq etishni talab qiladi. Ta'lim jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, fan mohiyatini to'liq o'zlashtirish natijasida nafaqat fanni o'rgatish, balki tarbiyalash; nafaqat fikrlarni singdirishi, balki fikrlarga o'rgatish kabi samaralarga erishish lozim. Ushbu ta'limiy samarani ta'minlash uchun o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida har bir darslik muallifi tomonidan bir qator modellashtirish metodlari tavsiya etilgan. Mazkur metodlar o'quvchilarda ko'nikmalarni shakllantirish, ularni topshiriqlar tizimini ishlab chiqib, mashqlarni bajarishga o'rgatish, voqeа va hodisalarни mantiqan ketma-ketlikka joylashtirish bilan bog'liq va boshqa bilimlar bilan boyitadiki, bu hol fan va fanlararo bog'liqlikni o'rganish muhitini shakllantiradi.

Boshlang'ich umumiyligi ta'lim davlat standartlari tomonidan qo'yiladigan talablarga ko'ra, O'quv fani bo'yicha dasturlar "natijaga qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqilishi" kerak. Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida asosiy rejallashtirilgan natijalardan tashqari unda boshlang'ich umumiyligi ta'lim dasturini o'zlashtirgan o'quvchilar ko'rsatgan natijalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

-shaxsga qaratilgan: o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha tayyorgarligi va layoqati, o'qishga qiziqishning shakllanganligi hamda uning ijtimoiy faolligi, shaxs sifatidagi individual pozitsiyasi, fuqarolik layoqatiga ega bo'lganligi kabi fazilatlarni o'zida aks ettirgan shaxsiy jihatlari;

-fanlar bo'yicha: o'quvchi o'zlashtirgan o'quv harakatlari (bilish, boshqarish va umumlashtirish kabi tavsifli ko'nikmalar) orqali o'zlashtirishning asosini tashkil etadigan salohiyatga ega bo'lish;

-muayyan fan bo'yicha natijalar: o'qish jaraynida har bir alohida o'quv faniga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlashtirish, ularning qo'llanish sohalari, olingan bilimlarni hayotga tatbiq eta bilish, shuningdek, zamonaviy dunyoning ilmiy muhitiga asos bo'ladigan eng muhim ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib borish.

O'quv fanlari bo'yicha natijalarnining tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur natijalar uchun: atrofdagi narsalar, jarayonlar, hodisalarga qarab muayyan mo'ljal olish; algoritmlar, jadvallar, sxemalar, bog'lovchilar va yig'indilar bilan ishslash; algoritmik va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish; tadqiqotlar olib borishni o'rganish majburiy shartlar hisoblanadi. Zamonaviy fanlar nuqtai nazaridan matematika va informatika bo'limi bo'yicha asosiy natijalarni sanab o'tadigan bo'lsak, ular:

1) atrofdagi narsalar, jarayonlar, hodisalarni ta'riflash va tushuntirish, shuningdek, ularning miqdoriy va fazoviy nisbatlarini baholash uchun boshlang'ich bilimlardan foydalanishni bilish;

2) mantiqiy va algoritmik fikrlash asoslari hamda fazoviy tasavvurga ega bo'lish, shuningdek, algoritmalarni bajarish va yozib borish, ilmiy til, o'lchamlar, taxmin va baholash, narsa va hodisalarni yaqqol tasvirlash qobiliyatini shakllantirish va takomillashtirib borish;

3) o'quv-amaliy va nazariy masalalarni hal qilishda bilimlardan foydalanish tajribalariga ega bo'lish;

4) jadvallar, sxemalar, diagrammalar, grafiklar va zanjirlar bilan ishslash; ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va natijalarini umumlashtirib, xulosa chiqarish;

5) kompyuter savodxonligi bo'yicha boshlang'ich tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Quyi sinflarda o'qitishning Boshlang'ich ta'lif Davlat ta'lif standarlarida sanab o'tilgan asosiy vazifalari tahlil qilinganda, ularning fanlarni o'qitilish natijalariga va ta'lifning yangi bosh maqsadiga to'la muvofiq kelishi ma'lum bo'ldi.

Boshlang'ich maktablar uchun fanlar bo'yicha namunaviy dasturda boshlang'ich sinflarda o'qitishning quyidagi maqsadlari sanab o'tish mumkin:

- 1) Quyi sinf o'quvchilarining fanlarga oid iqtidorini rivojlantirish.
- 2) Dastlabki bilimlarni o'zlashtirish (ma'lumotlarni izlash va mohiyatini tushunish, lavhali manazaralar, algoritmlar).
- 3) Tarbiya (fikrlashning tanqidiyligi, qiziqishlar doirasi, bilimlarning kundalik hayotdagi o'rni).

Shunday qilib, standart va dasturga ko'ra, zamonaviy boshlang'ich ta'lifning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- quyi sinf o'quvchilarining iqtidorini rivojlantirish;
- boshlang'ich bilimlar tizimini shakllantirish;
- bilish faoliyatiga o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish.

Ta'limiy maqsadlarni yanada aniqlashtirish uchun boshlang'ich sinflarda o'quv darsliklari, amaliy o'quv jarayoni (o'quvchilarning o'ziga xos jihatlari, o'qitishni umumlashtirish va individullashtirish omillarini hisobga olgan holda) kabi omillar xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limga didaktik metodika (didaktik texnologiya, didaktik usullar)larni tatbiq etish uchun:

- yozish va o'qish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmasini hosil qilish texnologiyasini rivojlantirib borish;
- boshlang'ich ta'limda ixtiroga yo'naltirilgan mashqlarni bajarish texnologiyasini tatbiq etish;
- boshlang'ich ta'limda tadqiqotga yo'naltirilgan uslublarni tatbiq etish;
- muammolar topish va ularni hal etish tamoyili asosida darslarni tashkil etish;

-o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchi kabi tomonlar o'rtasida o'zaro muloqotlarni tashkil etish usulini joriy etish kabi metod va uslublardan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limiga standartlarni joriy etish va shu orqali shaxsni shakllantishi uchun nafaqat o'quv fanlarini takomillashtirish, balki bola qobiliyatlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit va muhit ham yaratish kerak. Bu orqali esa yaxshi natijalarga erishishi ko'zda tutiladi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Назарова Т.С. Педагогическийе технологии новый этап эволюции. - М.: Педагогика. 1997.-С.20-26.
2. Нишоналиев У.Н. Модулнийе педагогическийе технологии. - Профессионалнойе образованийе. М: 2002. -№ 14.-С. 10-12.
3. Нуриддинов Б.С. Касб таълими ўқитувчилари малакасини оширишда фаол ўқитиш методларидан фойдаланиш: Пед.фан.номзоди.дисс. Автореф. -Т., 2002, 13- б.
4. Назаров О.В. Творчество как акмеологическая составляющая личностно профессионального развития психологов силовых структур [Электронный ресурс]: дис. канд. психол. наук :19.00.13.-М., 2010.-190 с.
5. Anvarovna, X. V. (2022). THE USE OF GENERAL AND SPECIAL METHODS IN CONDUCTING RESEARCH OF TECHNOLOGICAL EDUCATION.